

**DUAL TA'LIM TIZIMI -MALAKALI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA O'QUV VA
ISHLAB CHIQARISH SOHALARINING O'ZARO HAMKORLIGI**

Hasanova Noila Namozovna

Asadova Gulruh Islomovna

Buxoro shahar kasb-hunar maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqola professional ta'lismida amaliyot bilan nazariy darslarning uyg'unligini ta'minlab, malakali kadrlarni tayyorlash to'g'risida yozilgan.

Kalit so'zlar: Amaliyot, dual ta'lism, an'anaviy ta'lism, professional ta'lism, kasbiy ko'nikma, malaka, hamkorlik.

Mehnat bozori talablariga mos kadrlarni tayyorlashda ta'lism jarayonini bevosita amaliyot bilan uyg'unlashtirilgan holda tashkil etish ish beruvchilarning ehtiyojlarini qondirishda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Hammamizga ma'lum, iqtisodiyotni rivojlanishida o'rta bo'g'in kadrlarining o'rni alohida hisoblanadi. Ishlab chiqarish, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida ishchi kasb va mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyoj juda yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, mehnat bozoridagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni shakllanishida va ish beruvchilarning talablarida bitiruvchining ma'lumot darajasiga qo'shimcha ravishda bitiruvchilarda amaliy ko'nkmalar ya'ni tegishli kompetenstiyalar mavjudligiga ishon xosil qilish uchun har tomonlama puxta o'ylangan ta'lismi yaratishni taqozo etadi. Xalqaro ta'lism tizimi bilan O'zbekiston ta'lismi o'zaro uyg'unlashuvini ta'minlash orqali bitiruvchilarining malakalarini xalqaro mehnat bozorida ham tan olinishiga olib keladi.

An'anaviy ta'lism shaklida o'quvchi/talaba oliy yoki professional ta'lism muassasasida nazariy bilimlarni ko'proq egallab, amaliyot qismini juda oz soatlarda korxona va tashkilotlarda o'taydi. Shuning uchun, rivojlangan mamlakatlarning ta'lism tizimi o'rganilib, zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda o'qish bilan bir vaqtda korxona, tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi dual ta'lism shakli O'zbekiston ta'lismiga kiritildi.

Dual ta'lism – o'quvchi/talabaga ta'limga o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir.

"Dual" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, biror narsaning ikki qismiga taalluqliligi, ikkita narsani ifodalovchi, ikki qismidan iborat, degan ma'nolarni bildiradi.

Bunda yoshlar 2-3 kun ta'lism muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko'nkmalarni egallaydi.

Dual ta'lism shaklida tahsil olayotgan o'quvchi/talaba korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxona tomonidan ustoz biriktiriladi va oylik maoshi to'lanadi.

Bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shveystariya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o'ringa ega. Biz bilamizki, Germaniya o'zining ta'lismiga dual ta'lismi bir necha yillar oldin joriy qilgan. Germaniyada dual ta'lismiga rivojlanishining asosiy omili qonunchilikda dual ta'lismi ishtirokchilarining (korxona, o'quvchi, ta'lismu muassasasi) vazifalari va majburiyatlarani aniq belgilab qo'yilgan. Germaniyada 1,4 million yoshlar dual ta'lismiga shaklida ta'lismi olishadi. Germaniyada har yili 500 ming o'quvchi dual ta'lismida ishtirok etish uchun korxonalar bilan shartnoma imzolashga erishadi va 74 foiz yoshlar o'qishni yakunlagandan so'ng ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi imzolashga erishadi. Korxona tomonidan o'quvchi(lar)ga malakali va maxsus sinovdan o'tgan hamda sertifikatga ega bo'lgan ustoz biriktiriladi.

Hattoki yoshlarni kasbga yo'naltirish va kasblar to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi uchun 7-sinfdan boshlab o'quvchilar korxonalarda yiliga 2-4 haftalik tanishuv (stajirovka) o'tashadi. Yoshlar o'zlari borgan korxona va tashkilotlar faoliyati bilan tanishib, kasblar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lgandan so'ng, o'zi qiziqish bildirgan kasb bo'yicha korxona va tashkilotlar bilan shartnoma imzolaydi va dual ta'lismida tahsil olish uchun ta'lismi muassasasiga ushbu imzolangan shartnoma bilan hujjatlarini topshiradi. Germaniyada dual ta'lismida ishtirok etayotgan o'quvchilarga ish beruvchi tomonidan oyiga o'rtacha 930-1200 evro oylik ish haqi to'lanadi.

Bu borada Koreya Respublikasida ham yaxshi tajribalar joriy etilgan bo'lib, 9- sinf yakuniga ko'ra yirik ish beruvchilar tanlov e'lon qilib, stipendiya ajratish evaziga qobiliyatli o'quvchilarni kasbiy ta'lismi olishlarini rag'batlantiradi. O'qish yakuni bo'yicha ular mazkur korxonalarda ishni davom ettirishlari mumkin. O'quvchilarning bilimini baholash Mustaqil baholash (sertifikatlash) organlari tomonidan (Buyuk Britaniya), "dual ta'lismi" modelida kasbiy ta'limming nazariy qismi kollejlar, amaliy qismi esa maxsus komissiya tomonidan (Germaniya), ta'lismi muassasasi qoshidagi komissiya tomonidan (Yaponiya) baholanadi. Shu jumladan ham O'zbekistonda mutlaqo yangi professional ta'lismi tizimi yaratildi hamda uch toifadagi Ta'limming xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o'rinnlarda — Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lismi tizimi hamda tabaqaqalashtirilgan ta'lismi dasturlari joriy etiladigan ta'lismi muassasalari tarmog'i tashkil etilsin Unga ko'ra, 2020-2021 o'quv yilida professional ta'lismi tizimida respublika bo'yicha jami 725 ta ta'lismi muassasasi, ya'ni 339 ta kasb-hunar maktabi, 201 ta kollej va 185 ta texnikum faoliyati tashkil etildi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganiddek, dual ta'lismi mamlakatimiz ta'lismi tizimida yangi bo'lib, ushbu tizimni rivojlantirish bo'yicha bir qancha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lismi to'g'risida"gi qonuni 15-moddasiga muvofiq, "Dual ta'lismi" ta'lismi olish shakllaridan biri sifatida kiritildi. Qonunga dual ta'lismi bo'yicha alohida modda (17-modda) ham kiritilib, dual ta'lismi tashkil etish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ko'rsatib o'tildi. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi qarori bilan Professional ta'lism tizimida dual ta'lismni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Bugungi kunda dual ta'lismni yanada rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasini o'rgangan holda, qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

Ushbu tizimni joriy etishdan ko'zlangan maqsad iqtisodiyotning barcha sohalarida malakali va zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga ega o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash hamda yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat. Yoshlar ta'lism olish bilan birga haqiqiy ish joyida o'z kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bugungi kunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, 7,5 mingdan ortiq yoshlar respublikamizdagi professional ta'lism muassasalarida dual ta'lism shaklida ta'lism olib, 1,5 mingga yaqin korxona va tashkilotlarda ish faoliyatini olib bormoqda.

Dual ta'lismni rivojlantirish bo'yicha xorijiy mutaxassislar jalb qilinmoqda, mahalliy mutaxassislar Germaniya, Avstriya, Koreya va boshqa davlatlarga tajriba o'rganish maqsadida yuborilmoqda va dual ta'lismni rivojlantirish konstepsiyasi ustida ishlanmoqda.

Ta'lism tizimi transformastiyasi jarayonida yangi professional ta'lism tiziming o'rni va ahamiyatini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. 1. Professional ta'lism tizimini mehnat bozoridagi ulushi yuqori ekanligidan kelib chiqib oliy ma'lumot talab etilmaydigan ish o'rinnariga mazkur yangi tizimda kadrlar tayyorlashni bosqichma-bosqich oshirib borish 2. Professional ta'lism tizimini xalqaro ta'lism tizimi ilg'or tajribalaridan kelib chiqib takomillashtirib borish choralarini belgilash va amalga oshirishda davlat hamda ish beruvchilarning ishtirokini kengaytirish. 3. Xalqaro miqyosidagi o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish va mehnat resurslari eksportida O'zbekiston ulushini yanada kengaytirish uchun professional ta'lism va xalqaro mehnat bozoridagi ish beruvchilarning to'g'ri hamkorligini rivojlantirish. 4. Ichki mehnat bozorining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ayrim kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashda davlat buyurtmasining oshirish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lism to'g'risida"gi Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lism tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi// Xalq so'zi, 2020 yil 24 yanvar.

4. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi 2020 yil 30 sentyabr.
5. [httr://www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari sayti.
6. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyat. Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "FAN" nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 140-b.
7. Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2013 yil. - 476 b.
8. Mejdunarodnaya standartnaya klassifikastiya obrazovaniya (MSKO-2011) // <http://www.uis.unesco.org/Education/Documents/isced-2011-ru.pdf>